

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.O.Ikromova Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi nutq shakllarini tarjima qilishning psixolingvistik xususiyatlari	128
Ш.М.Артикова Сопоставление стратегий вежливости и культурных установок в англосаксонском и узбекском семейном дискурсе.....	136
G.A.Komilova Siyosiy nutqlarda ishontirish strategiyalarining lingvistik tahlili.....	145
M.T.Ikromov Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi.....	149
U.H.Usmonova O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarning struktur-semanatik va lingvokulturologik tadqiqi	154
U.M.Askarova Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	158
Sh.Kh.Sayidov, N.M.Nabijonova The intersection of paralinguistics and sociolinguistics.....	163
M.Y.Mamajonov, F.A.Bekmuxamedova Inglizcha va o'zbekcha maqollar asosida lingvokognitiv tahlil	166
Sh.Sh.Dadabayeva Aksiolingvistikadagi asosiy jarayonlar	171
Sh.Sh.Dadabayeva Axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar tadqiqi	175
L.T.Galimullina, K.M.Akramova The semantics of verbal phraseological units and their evaluative emotive peculiarities in the English and Russian languages	179
X.A.Baymanov, M.M.Soatova Hajviy matnlarni tarjima qilishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	184
Sh.R.Karimjonova Kognitiv tilshunoslik: asosiy yondashuvlar va tushunchalar	188
L.T.Galimullina, N.F.Salakhutdinova Some issues in the antonymy of phraseological units in the english language	195
Р.Сулейманова Историческая лексика тюркских языков: морфосемантическое и этимологическое исследование корневых слов	199
A.Sh.Mukhamadiev Aggression as a form of speech influence in the literature of the uzbek and english languages ..	203
S.Z.Hemidli Metaphorization in the mythological lexicon of english and azerbaijani languages (comparative-historical typological linguistics).....	209
X.U.Qodirova Nutqiy etiket va milliy-madaniy identikasiya: ingliz tili konteksti misolida	215
Д.Б.Хамидова Влияние языка на формирование специализированной терминологии	218
G.A.Zaynutdinova O'zbek tilshunosligida lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida	222
R.Kahramanova Lexical and grammatical features of kinship terms in azerbaijani dialects	227
A.M.Aimuxammetova Ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida numerativ birliklarning o'rganilish tarixi	231
N.Q.Adamboyeva Non-traditional language learning methods and brain activity	234
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova Ingliz tili o'rganishda gamifikatsiya: motivatsiya va faollikni oshirish	237
M.T.Raxmonqulova Tilshunoslikda “Konsept” va “Konseptosfera” tushunchalari talqini	241



UO'K:175181

SIYOSIY NUTQLARDA ISHONTIRISH STRATEGIYALARINING LINGVISTIK TAHLILI

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТРАТЕГИЙ УБЕЖДЕНИЯ В ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕЧАХ

LINGUISTIC ANALYSIS OF PERSUASION STRATEGIES IN POLITICAL SPEECHES

Komilova Gulbahor Abdumuxtor qizi 
Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Insoniyatga xos bo'lgan til vositasidagi kommunikatsiya — murakkab va ko'p qatlamli hodisa bo'lib, uni chuqur o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va psixologiya kabi fanlar kesishmasida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, siyosiy nutqlarda ishlatiladigan ishontirish strategiyalarining tahlili til birliklarining qanday maqsadli tanlanishini anglashda muhim metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu maqola siyosiy diskursda qo'llaniladigan lingvistik vositalar orqali ishontirish strategiyalarini ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan.

Аннотация

Коммуникация посредством языка, присущая исключительно человеку, представляет собой сложное и многослойное явление. Её углублённое изучение актуально не только в рамках лингвистики, но и на пересечении таких наук, как культурология, политология и психология. В частности, анализ стратегий убеждения, используемых в политических речах, требует серьёзных методологических подходов для понимания целенаправленного выбора языковых единиц. Настоящая статья посвящена научному исследованию стратегий убеждения в политическом дискурсе с опорой на лингвистические средства.

Abstract

Communication through language, which is unique to humanity, is a complex and multi-layered phenomenon. Its in-depth study is relevant not only within linguistics but also at the intersection of cultural studies, political science, and psychology. In particular, the analysis of persuasion strategies used in political speeches requires significant methodological approaches to understand the purposeful selection of linguistic units. This article is aimed at exploring persuasion strategies in political discourse through linguistic means from a scientific perspective.

Kalit so'zlar: ishontirish, siyosiy diskurs, lingvistik strategiyalar, ritorika, metafora, kinoya, kod almashtirish, kommunikatsiya.

Key words: persuasion, political discourse, linguistic strategies, rhetoric, metaphor, irony, code-switching, communication.

Ключевые слова: убеждение, политический дискурс, лингвистические стратегии, риторика, метафора, ирония, код-свитчинг, коммуникация.

KIRISH

Ishontirish insonlar o'rtasidagi kommunikativ faoliyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Shaxsiy suhbatlardan tortib, ommaviy axborot vositalari orqali olib boriladigan targ'ibotgacha bo'lgan barcha nutqiy holatlarda ishontirish elementlari mavjud bo'ladi. Shunga qaramay, ishontirish strategiyalarini ongli va samarali qo'llash malakasi har doim ham har bir so'zlovchida shakllanmagan bo'ladi. Shu bois, siyosiy diskurs doirasida ishlatiladigan til vositalarining qanday pragmatik vazifalarni bajarishi va ular orqali qanday lingvistik strategiyalar shakllanishi alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda siyosiy nutqlarda qo'llaniladigan ishontirish strategiyalarini lingvistik va pragmalolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilish maqsad qilindi. Tadqiqotning metodologik asoslari sifatida **diskurs tahlili**, **pragmalolingvistik tahlil**, hamda **stilistik-ritorik yondashuv** tanlab olindi. Bunday ko'p yo'nalishli yondashuv siyosiy matnlar va nutqlarning ko'p qatlamli tuzilmasini chuqur anglash imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida ingliz va o'zbek

siyosatchilarining ochiq nutqlari tanlab olindi. Tanlov mezoni sifatida quyidagi omillar hisobga olindi:

- nutqlarning keng auditoriyaga qaratilganligi va ommaviy axborot vositalarida yoritilganligi;
- ularning siyosiy pozitsiya, g'oya yoki maqsadni ilgari surishga qaratilgan bo'lishi;
- matnda aniq pragmatik strategiyalarning (ishontirish, yo'naltirish, e'tiqod uyg'otish) mavjudligi.

Tahlil qilishda Norman Fairclough va Teun van Dijk tomonidan ishlab chiqilgan kritik diskurs tahlili modeli, shuningdek, M. Beard tomonidan taklif etilgan ritorik strategiyalar tasnifi metodik asos sifatida qo'llandi. Shuningdek, ishontirish strategiyalari Aristotelning klassik ritorik uchligi — *logos*, *ethos*, *pathos* asosida ham baholandi.

Shuningdek, ma'lumotlar sifatida siyosiy nutqlarning yozma transkriptlari, ularning videoyozuvlari asosida qayta kodlangan versiyalari, va ularning OAVdagi sharhlari ham qo'llanildi. Har bir nutqdagi lingvistik vositalar maxsus jadval asosida kodlandi, ular ishtirok etgan kontekst va auditoriyaga ko'rsatgan ta'siri alohida baholandi.

Til birliklarining ma'nosi odatda sintaktik, semantik, fonologik va uslubiy mezonlar asosida aniqlanadi. Ammo siyosiy nutqda ma'lum bir birlikning tanlanishi asosan so'zlovchining pragmatik maqsadiga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, siyosiy kommunikatsiyada qo'llaniladigan til vositalarini **pragmalingvistik** va **diskursiv** tahlil asosida o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Diskurs tahlili ko'p komponentli metod bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va lingvistik omillarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Masalan, M. Foucault diskursni "fikrlar, ijtimoiy munosabatlar, e'tiqodlar, amaliyotlar va harakat yo'nalishlaridan iborat tizim" sifatida izohlaydi, bu esa jamiyatdagi subyektlarning qanday tashkil topishini ifodalaydi [1,45]. D. Crystal esa matnga kirishda turli tahlil darajalarini bir vaqtning o'zida hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi [1, 20].

Siyosiy diskurs tushunchasini tadqiq qilgan T.A. van Dijk uni "doing politics" (ya'ni siyosatni amalga oshirish) ifodasi sifatida ta'riflaydi [2,15]. Unga ko'ra, ishontirish bu — auditoriyaning fikrini yoki pozitsiyasini nutq orqali o'zgartirishga qaratilgan strategik kommunikatsiya jarayonidir [2, 244]. Xuddi shunday yondashuvni ritorika nazariyasida M. Beard ham ilgari suradi: u ritorikani "ishontiruvchi nutq san'ati" deb ataydi.[4, 176]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Siyosiy yetakchilar nutqlarida ishlatiladigan lingvistik strategiyalar, xususan metafora, takrorlash, kinoya, kod almashtirish va dramatik stilizatsiya — ular ommani o'z qarashlariga jalb qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu maqolada aynan mana shunday vositalarning funksional xususiyatlari, ishlatilish konteksti va ularning auditoriyaga ta'sir doirasi o'rganiladi.

Siyosiy nutqni tahlil qilishda **shaxs deiksisi** markaziy lingvistik vosita sifatida alohida e'tibor talab etadi. Levinson [1,62] ta'kidlaganidek, shaxs deiksisi — nutqdagi kommunikatsiya ishtirokchilarining o'zaro rollarini kodlashda muhim pragmatik funktsiya bajaradi. U "inklyuziv biz" (inclusive we) va "ular" (they) kabi ko'plik shakllari o'rtasidagi semantik farqlarni ochib beradi. Inklyuziv we tinglovchini so'zlovchi bilan bir guruhga mansub qilib ko'rsatadi, ya'ni ular o'rtasida hamkorlik va umumiy manfaatlar mavjudligini bildiradi.

Masalan, quyidagi iqtibosda:

"We worship an awesome God in the blue states and we don't like federal agents poking around in our libraries in the Red States" [9]

"We are a country awakened to danger and called to defend freedom" [10],

AQSH prezidentlari o'zlarini millatning ajralmas qismi sifatida tasvirlab, "men" emas, balki "biz" orqali milliy birlikni mustahkamlaydi. Bu esa shaxsiy ishtirokni umumiy manfaat bilan uyg'unlashtiradi.

Boshqa tomondan, eksklyuziv "we" shakli, odatda, so'zlovchini muayyan guruhdan ajratadi yoki mas'uliyatni guruh doirasida tarqatadi. Masalan:

"We have increased our budget at a responsible 4 percent" [10]

Bu holatda "we" — Kongress va hukumatni nazarda tutadi, ya'ni Prezident byudjet ortishini shaxsiy tashabbus emas, balki jamoaviy qaror sifatida ko'rsatadi. Xuddi shunday, quyidagi jumlada ham eksklyuzivlik kuzatiladi:

TILSHUNOSLIK

"We also hear doubts that democracy is a realistic goal for the greater Middle East, where freedom is rare" [10]

Bu yerda "we" ni "one" yoki "you" bilan almashtirish mumkin, bu esa umumiy fikrga murojaat qilishni bildiradi.

Van Dijk [2,28] siyosiy diskursda bunday qarama-qarshilikni "ideologik qutblanish" deb ataydi. Ya'ni "we" va "our" kabi birliklar ijobiy identifikatsiyani kuchaytirish uchun ishlatilsa, "they" va "their" esa salbiy guruhga nisbatan qarama-qarshilik tuyg'usini kuchaytiradi.

Shuningdek, siyosiy ritorikada **takrorlash** strategiyasi keng qo'llaniladi. Allen [6,211] fikricha, takrorlar tinglovchining diqqatini jalb qilish va asosiy fikrni mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. A. Beard tomonidan "uchlik ro'yxat" (*list of three*) eng samarali strategiyalardan biri sifatida ko'rsatiladi, chunki u tinglovchida uyg'unlik va ishonch hissini uyg'otadi. Misollar:

"Government OF the people, BY the people, FOR the people" [11] *"Jobs, jobs, jobs"* *"Wrong war, wrong time, wrong place"* *"This is not the end. It is not even the beginning of the end. But it is, perhaps, the end of the beginning"* [13]

Sinonimlar orqali ham takror ta'siri hosil qilinadi:

"A safe, strong, and proud America" (Trump) *"Strong, resolute and determined"* (Kerry)

Bunday takrorlar odatda intonatsiya, tana harakati va dramatik pauzalar bilan kuchaytiriladi. Qarama-qarshi juftliklar va parallel tuzilmalar orqali ham ta'sirchanlik oshiriladi. Masalan:

"One small step for man: one giant leap for mankind" (Armstrong) *"Let freedom ring..."* [13]

Kuhl va Anderson [7, 970–971] takrorning haddan ortiq ishlatilishi esa aks ta'sirga — xotirada susayishga olib kelishini ta'kidlaydi. Masalan:

"To be honest, I inherited a mess. It's a mess. At home and abroad, a mess" [12]

Bunday ifodalar auditoriyada emotsional ta'sir uyg'otadi va ong ostida rozi bo'lishga olib keladi.

Shuningdek, siyosatchilar **leksik qo'shimchalar** orqali raqiblarini salbiy tarzda aks ettirishadi. Bunda evfemizm, giperbola, litota, yoki ironiya qo'llaniladi. Grice [8,41-58] tamoyiliga ko'ra, bu vositalar muloqotdagi "ortiqcha" yoki "kamchilik" ifodalar orqali ma'lumotga ixtiyoriy hissa qo'shish sifatida talqin qilinadi. Biroq bunday strategiyalar, ayniqsa irqiy yoki gender stereotiplar bilan bog'liq bo'lsa, siyosatchining o'z obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutqlarda **metafora** ham keng qo'llaniladi. Charteris-Black (2006) fikricha, siyosiy metaforalar siyosatchilarga qarorlarini legitimlashtirish va auditoriyani ishontrish imkonini beradi.[5, 278] Masalan:

"Coming to a crossroad", *"overcoming obstacles"*, *"not deviating from the path"* kabi iboralar siyosiy yo'nalish, strategiya va qaror qabul qilish jarayonlarini harakat yoki sayohat sifatida tasvirlaydi.

Siyosiy nutqda **kod-almashuv (code-switching)** strategiyasining qo'llanilishi so'zlovchining auditoriyaga yaqinlashishga va madaniy kontekstga moslashishga urinishining bir ko'rinishidir. Biroq, bu yondashuv, ayniqsa etnik va mintaqaviy lahzalarning noto'g'ri yoki noadekvat tarzda qo'llanishi natijasida, muayyan xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hodisa XX asr oxirlaridan boshlab siyosiy ritorikada asta-sekin ommalashgan bo'lib, ayniqsa global media orqali kuzatish imkoniyati kengaygan sari keng ko'lamda tahlil qilinmoqda.

Kod-almashuvning mashhur misollaridan biri Prezident J. F. Kennedyning 1963-yilda G'arbiy Berlin aholisi oldidagi nutqidir. U o'zini Berlin aholisi bilan bir deb ko'rsatish maqsadida "Ich bin ein Berliner" deb aytgan. U aslida "Men berlinlikman" degan ma'noni nazarda tutgan bo'lsa-da, "Berliner" so'zi Berlinda shirinlik nomi (jemli bulochka) sifatida ham ishlatilgani sababli bu ibora anglashilmovchilikka sabab bo'lgan. Bu voqea kod-almashuvdagi semantik "soxta do'stlar" (false friends) muammosining yorqin namunasidir.

XULOSA

Xulosa qilganda, siyosiy nutqlar ishontrishga qaratilgan ko'p qatlamli lingvistik va stilistik strategiyalar bilan boyitilgan. Ularning eng samaralisidan biri — takrorlash bo'lib, psixologik tadqiqotlarga ko'ra, ma'lumotning bir necha bor takrorlanishi uni esda saqlash va ishonch hosil qilish jarayonini kuchaytiradi. Takrorlash orqali siyosatchi o'z pozitsiyasini qat'iy, barqaror va haqiqatga yaqin qilib ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. Bundan tashqari, siyosiy nutqlarda hazil, kinoya va istehzo kabi stilistik vositalar ham keng qo'llaniladi. Ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Nutq muhitini yumshatish;
- So'zlovchining intellektual salohiyatini namoyish qilish;

- Raqib siyosatchilarni noqulay holatga qo'yish yoki ularni kulgili obrazda tasvirlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, kod-almashuv siyosiy diskursda nisbatan yangi, ammo tobora samarali bo'lib borayotgan strategiyalardan biridir. Uning muvaffaqiyatli qo'llanilishi siyosatchining madaniy moslashuvchanlik darajasi, lingvistik sezgirligi, va auditoriya bilan psixologik yaqinlikni ta'minlay olish qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Levinson, S. C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 b.
2. van Dijk, T. A. *Discourse as Social Interaction*. London: SAGE Publications, 1997. – 352 b.
3. Bramley, N. R. *Pronouns of Politics: The Use of Pronouns in the Construction of 'Self' and 'Other' in Political Interviews*. Canberra: Australian National University, 2001. – 315 b.
4. Beard, A. *The Language of Politics*. London: Routledge, 2000. – 176 b.
5. Charteris-Black, J. *Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor*. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2006. – 278 b.
6. Allen, R. *The Influence of Repetition in Political Discourse*. // *Journal of Political Psychology*, 1998, Vol. 19(2), pp. 211–233.
7. Kuhl, P. K., & Anderson, M. *Repetition and Memory Decay in Speech Perception*. // *Cognitive Science*, 2011, Vol. 35(5), pp. 970–971.
8. Grice, H. P. *Logic and Conversation*. // *Syntax and Semantics: Speech Acts*, ed. P. Cole and J. L. Morgan. New York: Academic Press, 1975. – pp. 41–58.
9. Obama, B. (2004). *Democratic National Convention Speech*. – URL: <https://wapo.st/3CxeMFo>
10. Bush, G. W. (2001, 2004). *State of the Union Addresses*. – URL: <https://bit.ly/3nUvqdR>,
<https://nyti.ms/3BylZ5D>
11. Lincoln, A. (1863). *Gettysburg Address*. – URL: <https://www.youtube.com/watch?v=9TCMHVnNc5w>
12. Roosevelt, F. D. (1933). *First Inaugural Address*. – URL: <https://www.fdrlibrary.org>
13. Martin Luther King, Jr. (1963). *I Have a Dream*. – URL: https://www.archives.gov/exhibits/american_originals/mlk.html